

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 11. November 2024

Tokdoshlar oilasining asosiy turkum va turlari. Tarqalishi va ahamiyati

Abdukarimova Gulchiroy Adhamjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Biologiya yo'nalishi 201-guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu maqola tokdoshlar oilasi vakillarining turkumlari va turlari xilma-xilligi, yer yuzida tarqalishi, insonlar hayoti va tabiatdagi ahamiyati haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Vitaceae, tropik, subtropik, beshyaproqli partenotsissus, darmondorilar, vino.

Abstract: this article contains information about the diversity of genera and species of representatives of the family of sedges, their distribution on the earth, their importance in human life and nature.

Key words: Vitaceae, tropical, subtropical, multi-leaved parthenocissus, herbs, wine.

Аннотация: в данной статье собраны сведения о разнообразии родов и видов представителей семейства осоковых, их распространении на земле, их значении в жизни человека и природе.

Ключевые слова: Vitaceae, тропические, субтропические, партеоциссус многолистный, травы, вино

Kirish. Bu oilaga asosan tropik va subtropik mintaqalarda tarqalgan 14 turkumga mansub 910 dan ortiq tur kiradi. Tokdoshlar oilasi jingalaklari yordamida boshqa narsalarga ilashib o'sadigan buta, ilashuvchi lianalar va daraxtlarni o'z ichiga oladi. Tokdoshlardagi jingalaklar novda shaklining o'zgarishidan hosil bo'lgan. Barglari oddiy, murakkab, uzun bandli, yonbargchali, asosan panjasimon tuzilishli. Gullari mayda, to'g'ri, ikki yoki bir jinsli, rangsiz, ro'vak (murakkab shingil) to'pgulga yig'ilgan. Gulqo'rg'oni murakkab, gulkosachasi yaxshi taraqqiy etmagan. Gultojbarglari 5 ta, erkin yoki uchi bilan bir-biriga qo'shilgan bo'ladi. Changchilari 5 ta. Urug'chisi bitta bo'lib asosan, ikkita mevabargning qo'shilishidan hosil bo'lgan. Mevasi - rezavor meva. Gul formulasi Gk4+5Gt5(5)Ch5U(2).

Tokdoshlarning keng tarqalgan vakillaridan biri madaniy tok hisoblanadi. Uning bo'yи 2-4 metrdan 6-10 metrgacha yetishi mumkin. Vegetativ yo'l bilan ko'paytiriladi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

Bunda tokning qalamchalaridan foydalaniladi. Tok qalamchalari kuzda tok kesish vaqtida 45-50 sm uzunlikda tayyorlanadi. Tayyor qalamchalarni bog'-bog' qilib nam chuqurga ko'mib qo'yiladi. Bahor kelganda ularni olib ekiladi. O'zbekistonda tokdoshlar oilasiga mansub 3 turkumga kiruvchi 4 tur o'sadi. Beshyaproqli partenotsissus O'zbekistonda manzarali o'simlik sifatida choyxona, oshxona, dala shiyponlari va ayvonlar oldiga ekiladi. U yovvoyi uzum(yapon uzumi)nomi bilan mashhur bo'lib, partenotsissus turkumiga mansub. Vatani Shimoliy Amerika hisoblanadi. Oila vakillari mo'tadil arealdagi davlatlardan Shimoliy Amerika, Yevropa, Osiyo hududlarida tarqalgan, ba'zi turlari esa G'arbiy Hindiston, Meksika, Shimoliy-G'arbiy Janubiy Amerikadan ham topilgan. Oilaning ba'zi turlari quruq iqlimda ham omon qolish xususiyatiga ega.Ular tropik mintaqadagi Afrika va Janubiy Amerika hududlarida ham mavjud. Xususan, shimoliy hududlardagi davlatlardan Shimoliy Amerika mintaqasidagi AQSH va Kanada yovvoyi uzum turlari vatani hisoblanadi. Yevropada yetishtiriladigan oddiy uzum esa asosan vino olish va mayiz yetishtirish bilan ancha mashhur.

Oila vakillari inson hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan tabobat, tibbiyat va oziq-ovqat sanoatida keng foydalaniladi. Xususan, Tok- qimmatbaho subtropik o'simlik bo'lib, inson umrini uzaytirishga juda katta hissa qo'shuvchi mahsulot turlaridan biri bo'lib, uning mevasi o'zining parhezlik va oziqaviy tarkibi jihatidan inson organizmi uchun eng zarur mahsulot sanaladi. Pishib yetilgan uzum mevalarida, ayniqsa, kishmish navlarida organizm tomonidan tez o'zlashtiriladigan 28-30 % gacha - glyukoza, saxaroza, fruktoza kabi uglevodlar bo'lib, qon tarkibini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Yangi uzilgan uzum tarkibida inson salomatligi uchun zarur bo'lgan olma, limon, qahrabo, chumoli va boshqa bir qancha kislotalar hamda kaliy, kalsiy, fosfor, natriy kabi mineral tuzlar mavjud. Uzum mevasi tarkibida A, S, R, RR, V1 V2, V6, V12, kabi darmondorilar ham mavjuddir. Shuningdek, V guruh vitaminlari, aminokislotalarning qanday miqdorda saqlanishi uzum navining pishish muddatiga, urug'li yoki urug'sizligiga, tok tupining o'sish kuchiga hamda parvarishlash usullariga bog'liq. Olimlarning kuzatishlariga qaraganda, V guruhiga mansub darmondorilar, aminokislotalar va mikroelementlar kechpishar uzum navlarida ko'proq, to'planishi tadqiqot natijalaridan aniqlangan. Uzum tabobatda sil, kam qonlik, kam quvvatlilik, oshqozon-ichak, yurak xastaliklarini davolashda ishlataladi. Undan tayyorlangan mayizni damlab ichilsa kam qonlikka davo bo'ladi.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 11. November 2024

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki tokdoshlar inson hayotida oziq-ovqat sanoati, tabobatda juda katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari ularning ba'zi turlaridan estetik zavq beruvchi o'simlik sifatida ham foydalaniladi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Ma'murov F. Uzumchiliklarning zamonaviy asoslari, 2020
2. 2.Yunusov, G'.A. G'anieva, X.X. Salimova. Uzumni saqlash va qurutish texnologiyasi. Durdona nashiryoti, Buxoro 2022
3. O' Pratov. 6-sinf Botanika darsligi. Toshkent 2017

**Research Science and
Innovation House**